# Sarhisob: “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida texnik va texnologik yangilash natijasida ishlab chiqarish hajmi ortdi

// 27.12.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-o-zkimyosanoat-aj-tarmoq-korxonalarida-texnik-va-te




2024-yilda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarida texnik va texnologik yangilash, modernizatsiya jarayonlari natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortdi

“Navoiyazot” AJda ammiak va karbamid sexida katalizatorlarni takomillashtirish hisobiga ammiak ishlab chiqarish sutkasiga 1 744 tonnadan 1 800 tonnagacha yetkazildi;

polivinilxlorid (PVX) ishlab chiqarish barqarorligi ta’minlanib, kunlik ishlab chiqarish 137 tonnadan 180 tonnagacha oshirildi;

«Maxam-Chirchiq» AJda karbamid ishlab chiqarish sexida modernizatsiya ishlarining amalga oshirilishi hisobiga kunlik ishlab chiqarish 820 tonnadan 950 tonnagacha oshirildi

«Dehqonobod kaliy zavod» AJda tog‘-kon kompleksi shaxtasining 9-10 panellarida yangi konveyerlar montaj qilindi, natijada sutkasiga qo‘shimcha 100 tonna kaliy xloridi ishlab chiqarish ta’minlandi

“Farg‘onaazot” AJda – karbamid sexi sintez kolonnasini modernizatsiyasi hisobiga karbamid ishlab chiqarish sutkasiga 1 280 tonnadan 1 320 tonnaga yetkazildi.

**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**